

«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLARINING NAVBATDAGI YILLIK
UMUMIY YIG‘ILISHINING BAYONNOMASIDAN
KO‘CHIRMA

2026-yil 29-iyun

№ 10

Toshkent shahri

Soat: 11:00

Shahrisabz ko‘chasi, 2-uy

...

...

...

KUN TARTIBI

1. Bankning sanoq komissiyasi a‘zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. Bank Kuzatuv kengashining 2025-yil faoliyati yakunlari bo‘yicha hisobotini eshitish.
4. Bank Boshqaruvining bankning 2025-yil moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari va bank faoliyatining 2026-yil uchun belgilangan ustuvor vazifalari bo‘yicha hisobotini tasdiqlash.
5. Bankning 2025-yil yakuni bo‘yicha xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan auditorlik xulosasini ko‘rib chiqish.
6. Bankning 2025-yil yakuni bo‘yicha yillik hisoboti (shu jumladan, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar hisoboti)ni tasdiqlash.
7. Bankning sof foydasini (shu jumladan, 2025-yil yakuni bo‘yicha sof foydasini) taqsimlash.
8. Bankning 2026-yil faoliyatini majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash va uning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdorini belgilash hamda u bilan shartnoma tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish.
9. Bankning affillangan shaxslar ro‘yxatini tasdiqlash.
10. Aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bank tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlarni ma‘qullash.
11. Bank tomonidan tuziladigan yirik bitimlarga rozilik berish va tasdiqlash.
12. Bank Boshqaruvining bank faoliyatini yuritish jarayonida tuzilgan yirik tavakkalchiliklarga oid va boshqa bitimlar yuzasidan hisobotini tasdiqlash.
13. Bank Kuzatuv kengashi a‘zolariga to‘lanadigan haq miqdorini belgilash.
14. Bankning ichki qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.
15. Bankning Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.
16. Bankning yangi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ushbu faoliyat yuzasidan yangi kollegial organi tashkil etish.

17. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi a'zolarini saylash.
18. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi nizomini tasdiqlash.
19. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha:

1. Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **birinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

1. Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni uch kishidan iborat bo'lsin va quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

Napasov Bunyodbek Rashidbek o'g'li – “Open bank” aksiyadorlik jamiyati Yuridik boshqarmasi bo'lim boshlig'i, komissiya raisi;

Inomov Ilyosbek Ixvoljon o'g'li – “Open bank” aksiyadorlik jamiyati Bank apparati etakchi menejeri, komissiya a'zosi;

Namozov Shohruh Uchkunovich – “Open bank” aksiyadorlik jamiyati G'aznachilik boshqarmasi etakchi menejeri, komissiya a'zosi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha:

2. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **ikkinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

2. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi reglamenti tasdiqlansin va u quyidagi tartibda tashkil etilsin:

ma'ruzalar uchun 15 daqiqagacha vaqt ajratilishi;

muhokama va muzokaralar, shuningdek ovoz berish uchun 10 daqiqagacha vaqt ajratilishi.

Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha:

3. Bank Kuzatuv kengashining 2025-yil faoliyati yakunlari bo'yicha hisobotini eshitish.

...

...

...

Kun tartibidagi **uchinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

3.1. Bank Kuzatuv kengashining 2025-yil faoliyati yakunlari bo'yicha hisoboti 1-ilovaga muvofiq ma'qullansin va tasdiqlansin.

3.2. Bank Kuzatuv kengashi zimmasiga bankning aktivlari, majburiyatlari va biznes reja ijrosini tahlil qilgan holda bank Boshqaruvi faoliyatini muntazam kuzatib borish, hisobotlarini eshitish hamda ushbu to'g'risida tegishli qarorlar qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala bo'yicha:

4. Bank Boshqaruvining bankning 2025-yil moliya-xo'jalik faoliyati natijalari va bank faoliyatining 2026-yil uchun belgilangan ustuvor vazifalari bo'yicha hisobotini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **to'rtinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

4.1. Bank Boshqaruvining bankning 2025-yil moliya-xo'jalik faoliyati natijalari va bank faoliyatining 2026-yil uchun belgilangan ustuvor vazifalari bo'yicha hisoboti 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.2. Bank Boshqaruvi zimmasiga bankning biznes-rejasi ijrosini ta'minlash, bank daromadliligi va rentabelligini oshirish vazifasi yuklatilsin.

Kun tartibidagi beshinchi masala bo'yicha:

5. Bankning 2025-yil yakuni bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan auditorlik xulosasini ko'rib chiqish.

...

...

...

Kun tartibidagi **beshinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

5. Bankning xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan 2025-yil moliyaviy hisobotlari va ushbu hisobotlar yuzasidan "Ernst&Young" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi auditorlik tashkilotining berilgan ijobiy auditorlik xulosasi tasdiqlansin.

Kun tartibidagi oltinchi masala bo'yicha:

6. Bankning 2025-yil yakuni bo'yicha yillik hisoboti (shu jumladan,

buxgalteriya balansi, foyda va zararlar hisoboti)ni tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **oltinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

6. Bankning 2025-yil yakuni bo'yicha yillik hisoboti (shu jumladan, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar hisoboti) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi yettinchi masala bo'yicha:

7. Bankning sof foydasini (shu jumladan, 2025-yil yakuni bo'yicha sof foydasini) taqsimlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **yettinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

7.1. Bankning sof foydasi (shu jumladan, 2025-yil yakuni bo'yicha sof foydasi) taqsimlanmasin.

7.2. Bank Boshqaruvi zimmasiga sof foydani taqsimlashda prudensial normativlar Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi hamda ushbu normativlar mazkur taqsimlash oqibatida buzilmasligi holatlariga aniqlik kiritilgandan so'ng Kuzatuv kengashi tavsiyasi asosida 2025-yil yakuni bo'yicha olingan sof foydani taqsimlash masalasini aksiyadorlarning keyingi navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishi ta'minlansin.

Kun tartibidagi sakkizinchi masala bo'yicha:

8. Bankning 2026-yil faoliyatini majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash va uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdorini belgilash hamda u bilan shartnoma tuzish to'g'risida qaror qabul qilish.

...

...

...

Kun tartibidagi **sakkizinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

8. Bankning 2026-yil faoliyatini majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun "Ernst&Young" MCHJ shaklidagi auditorlik tashkiloti belgilansin, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy valyuta kursi bo'yicha 200 000 (ikki yuz ming) AQSH

dollarining soʻmdagi ekvivalenti miqdorida etib belgilansin hamda u bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzish bank Boshqaruvi zimmasiga yuklatilsin.

Kun tartibidagi toʻqqizinchi masala boʻyicha:

9. Bankning affillangan shaxslar roʻyxatini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi toʻqqizinchi masala boʻyicha aksiyadorlar umumiy yigʻilishi qaror qiladi:

9. Bankning affillangan shaxslar roʻyxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi oʻninchi masala boʻyicha:

10. Aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yigʻilishigacha boʻlgan davrda bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bank tomonidan kundalik xoʻjalik faoliyati jarayonida tuzilishi mumkin boʻlgan bitimlarni maʼqullash.

...

...

...

Kun tartibidagi oʻninchi masala boʻyicha aksiyadorlar umumiy yigʻilishi qaror qiladi:

10. Aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yigʻilishigacha boʻlgan davrda bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bank tomonidan kundalik xoʻjalik faoliyati jarayonida tuzilishi mumkin boʻlgan bitimlar roʻyxati 5-ilovaga muvofiq maʼqullansin.

Kun tartibidagi oʻn birinchi masala boʻyicha:

11. Bank tomonidan tuziladigan yirik bitimlarga rozilik berish va tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi oʻn birinchi masala boʻyicha aksiyadorlar umumiy yigʻilishi qaror qiladi:

11. Bank tomonidan kun tartibiga qoʻyilgan yirik bitimlarni amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilgan holda tuzishga rozilik berilsin va tasdiqlansin.

Kun tartibidagi oʻn ikkinchi masala boʻyicha:

12. Bank Boshqaruvining bank faoliyatini yuritish jarayonida tuzilgan

yirik tavakkalchiliklarga oid va boshqa bitimlar yuzasidan hisobotini tasdiqlash.

...
...
...

Kun tartibidagi o‘n ikkinchi masala bo‘yicha aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qaror qiladi:

12.1. Bank Boshqaruvining bank faoliyatini yuritish jarayonida tuzilgan yirik tavakkalchiliklarga oid va boshqa bitimlar yuzasidan hisoboti 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12.2. Bank Boshqaruvi zimmasiga ushbu tuzilgan yirik tavakkalchiliklarga oid va boshqa bitimlar bo‘yicha talablarni va/yoki majburiyatlarni o‘z vaqtida so‘ndirishini va/yoki bajarilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

Kun tartibidagi o‘n uchinchi masala bo‘yicha:

13. Bank Kuzatuv kengashi a‘zolariga to‘lanadigan haq miqdorini belgilash.

...
...
...

Kun tartibidagi o‘n uchinchi masala bo‘yicha aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qaror qiladi:

13. Bank Kuzatuv kengashi a‘zolariga aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda to‘lanadigan haq miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

Kun tartibidagi o‘n to‘rtinchi masala bo‘yicha:

14. Bankning ichki qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.

...
...
...

Kun tartibidagi o‘n to‘rtinchi masala bo‘yicha aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qaror qiladi:

14.1. Bankning “Open bank” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizomiga hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi to‘g‘risidagi nizomiga 8-ilovaga muvofiq kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar tasdiqlansin.

14.2. Ushbu ichki qoidalariga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, bankning Ustaviga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ro‘yxatga olinganidan so‘ng bankda ro‘yxatga

olinsin va kuchga kiritilsin.

Kun tartibidagi o'n beshinchi masala bo'yicha:

15. Bankning Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

...

...

...

Kun tartibidagi **o'n beshinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

15. Bank Ustaviga kiritilayotgan 9-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar loyihasi aksiyadorlar tomonidan berilgan tavsiyalar inobatga olingan holda qayta ishlab chiqilsin va aksiyadorlarning keyingi navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishi ta'minlansin.

Kun tartibidagi o'n oltinchi masala bo'yicha:

16. Bankning yangi faoliyatini yo'lga qo'yish va ushbu faoliyat yuzasidan yangi kollegial organni tashkil etish.

...

...

...

Kun tartibidagi **o'n oltinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

16.1. Bankda islomiy bank faoliyati yo'lga qo'yilsin va ushbu faoliyat yuzasidan Islomiy moliya kengashi tashkil etilsin.

16.2. Bank Boshqaruvi zimmasiga bankda islomiy bank faoliyatini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasini olish uchun barcha zaririy chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

Kun tartibidagi o'n yettinchi masala bo'yicha:

17. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi a'zolarini saylash.

...

...

...

Kun tartibidagi **o'n yettinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

17. Bankda tashkil etiladigan Islomiy moliya kengashi a'zolari 10-ilovaga muvofiq uch yil muddatga saylansin hamda o'rnatilgan tartibda nomzodlarning tegishli hujjatlari shakllantirilsin va kelishish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga taqdim qilinsin.

Kun tartibidagi o‘n sakkizinchi masala bo‘yicha:

18. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi nizomini tasdiqlash.

...
...
...

Kun tartibidagi **o‘n sakkizinchi masala** bo‘yicha aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi **qaror qiladi:**

18.1. “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining Islomiy moliya kengashi nizomi 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

18.2. Ushbu ichki qoida, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bankka islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasi berilganidan so‘ng bankda ro‘yxatga olinsin va kuchga kiritilsin.

Kun tartibidagi o‘n to‘qqizinchi masala bo‘yicha:

19. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

...
...
...

Kun tartibidagi **o‘n to‘qqizinchi masala** bo‘yicha aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi **qaror qiladi:**

19. Bankning tashkiliy tuzilmasi 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

...
...
...

Yig‘ilish raisi

imzo

N. Yusupov

Ko‘chirma asliga to‘g‘ri:

